



SOLIQA TORTISH VA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SOHASIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH JORIY ETILISHINING BOSQICHLARI VA EVOLYUTSIYASI

G'aniyev Farrux Izzatilloevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-0162-8225

farrux0915@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tovar va moliya bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich qisqartirish, imtiyozlar va preferensiyalar berish tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, qonunchilikni tartibga solish tizimini qisqartirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sirni yanada kamaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasiga yuklash va soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirish va respublika soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarning o'zaro hamkorligini tubdan yaxshilash.

Kalit so'zlar: soliq, fiskal siyosat, byudjet, soliq ma'muriyati, soliq salohiyati, normativ tahlil, ijobiy tahlil, soliq yuki, vakillik soliq stavkasi, o'rtacha stavka, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

ЭТАПЫ И ЭВОЛЮЦИЯ РЕАЛИЗАЦИИ УСЛУГ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКАМ В СФЕРЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ И НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ

Ганиев Фаррух Иззатиллоевич

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется дальнейшему снижению негативного влияния на конкурентоспособность экономики республики путем постепенного снижения монополии на товарных и финансовых рынках, повышению эффективности системы предоставления льгот и преференций, а также снижению нормативной нагрузки на субъекты предпринимательства и коренному совершенствованию взаимодействия налогоплательщиков по осуществлению налогового администрирования и исполнению налоговых обязательств направляется.

Ключевые слова: налог, фискальная политика, бюджет, налоговое администрирование, налоговый потенциал, нормативный анализ, позитивный анализ, налоговая нагрузка, репрезентативная ставка налога, средняя ставка, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы.

STAGES AND EVOLUTION OF THE IMPLEMENTATION OF TAXPAYER SERVICES IN THE FIELD OF TAXATION AND TAX ADMINISTRATION

Ganiyev Farrukh Izzatilloevich
Tashkent State University of Economics

Abstract. *In this article, special attention is paid to further reducing the negative impact on the competitiveness of the republic's economy by gradually reducing the monopoly on commodity and financial markets, improving the efficiency of the system of granting benefits and preferences, as well as reducing the regulatory burden on business entities and radically improving the interaction of taxpayers in the implementation of tax administration and the fulfillment of tax obligations of the republic.*

Key words: *tax, fiscal policy, budget, tax administration, tax potential, regulatory analysis, positive analysis, tax burden, representative tax rate, average rate, tax reporting, tax revenues, tax benefits.*

Kirish.

Soliq tushumlari byudjet tizimining daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda davlat hamda munitsipalitetlarga yuklangan iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha davlat majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Barcha darajadagi byudjet ijrosi sharoitida soliq bazasini kengaytirish zarurati soliq tizimining samarali ishlashiga e'tiborni kuchayishiga olib keladi, bu asosan soliqni boshqarishning tashkiliy-huquqiy shartlari va soliq ma'muriyatchiligining sifati bilan belgilanadi.

Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sohasida nazariy qoidalarni ishlab chiqish va yangi vositalaridan foydalanish amaliyotini tahliliy umumlashtirish soliq organlari faoliyatiga axborot texnologiyalarini faol joriy etgan holda soliq nazorati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ilmiy asoslashga hamda soliq to'lovchilar, shuningdek, vakolatli davlat organlarining soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va soliq to'lovchilar uchun soliq tavakkalchiligini boshqarishdagi yondashuvdan foydalangan holda soliq munosabatlari subyektlarining o'zaro aloqalarining yangi tendensiyalarini amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzu doirasida asosiy o'rganiluvchi iqtisodiy kategoriya soliq soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bo'lib, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga nisbatan berilgan ta'riflarga batafsil to'xtalsak.

Ergashevning (2023) tadqiqot ishida "Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda soliqlarni o'z vaqtida va to'liq byudjetga yo'naltirishning zamonaviy vositalarini qo'llashga" ahamiyat berilgan. Jumladan soliq to'lovchilarning ixtiyoriy soliq intizomini rag'batlantirish, soliq to'lovchilarning faoliyatini risk boshqaruv tizimi (Risk Management Information System (RMIS) orqali baholash hamda barcha toifadagi soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy ravishda bajarish asosida ularning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish masalasiga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilgan.

Axmedovning (2023) fikrlariga ko'ra, respublikamizda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda soliqdan qochishni oldini olishning huquqiy va moliyaviy instrumentlarini qo'llash orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish mumkin.

Nazarov (2023) o'zining ilmiy tadqiqotida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda kameral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha tekshiruvni o'tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan tuziladigan xulosa mazmuni tekshiruv tashabbusi uchun asos sifatida xizmat qilgan ma'lumotlar hamda soliq to'lovchi yoki uchinchi shaxslardan talab qilib olingan axborotni

(hujjatlarni) o'rganish va tahlil qilish natijalarining ham ko'rsatilishiga oid me'yorlarni kiritish orqali takomillashtirilgan

Xususan, buyuk klassik iqtisodchi Adam Smit (1992) fikricha, raqobatni bozor subyektlari o'rtasida tovarlar xarid qilish va sotish borasida qulayroq sharoitlar uchun olib boriladigan, to'g'ri, halol, til biriktirishsiz kurash, musobaqa bilan bog'lagan. U raqobat kurashining asosiy usuli deb narx o'zgarishlarini bilgan. Bunda u jamoa irodasi (ixtiëri) bilan boshqarilmaydigan, umumiy mo'ljallarga ega bo'lmagan bozorda qat'iy xulq-atvor qoidalariga amal qilishini qayd etgan. Demak, raqobat–bozor qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi aynan o'sha «ko'rinmas qo'l»dir.

Shumpeter (2007) iqtisodiy rivojlanish nazariyasi doirasida raqobatni eskilikning yangilik bilan raqiblik kurashi sifatida ta'riflagan. Yangiliklar kiritish bozor tomonidan shubha bilan qabul qilinadi, biroq agar novator ularni amalga oshirishning uddasidan chiqsa, raqobat mexanizmi eskirgan texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalarni bozordan siqib chiqaradi degan fikrni ta'kidlagan.

Tokarev va Maninalar (2015) ning fikriga ko'ra, eksport salohiyati korxonaning eksport uchun raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarish, uni tashqi bozorlarga targ'ib qilish, u yerda tovarlarni sotish va kerakli darajada xizmat ko'rsatish qobiliyati sifatida belgilanishi mumkin.

Amerikalik iqtisodchi Naisbit (2013) korxonaning eksport salohiyatini iqtisodiy salohiyatning dinamik o'zgaruvchan komponenti sifatida belgilaydi, uning tashkiliy-texnik tuzilishi, korxonada missiyasi hamda maqsadlariga muvofiq, ekologik omillar va ichki sharoitlarning ta'sirini hisobga olgan holda, uzoq va yaqin xorij bozorlarida rentabellik darajasi bilan barqaror savdo hajmlarini ta'minlaydi.

Pugachev, Parfenovalarning (2017) fikricha, "Soliq siyosati sohasida raqamli iqtisodiyotni tartibga solish ikkita asosiy yo'nalishni ajratish zarur:

- 1) raqamli iqtisodiyot operatsiyalarini soliqqa tortish vaboj-ta'riflarini tartibga solish;
- 2) soliq va bojxona ma'muriyatchiligi va nazoratiga raqamli texnologiyalarni kiritish."

Vishnevskiy (2019)ning e'tirof etishicha soliqqa tortishni raqamlashtirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoni va iqtisodiy munosabatlar tizimini robotlashtirishga asoslangan avtomatlashtirish bilan bog'liq yangi soliq institutlari shakllanadi. Soliqqa tortish tizimi obyektiv ravishda transformasiyalanadi.

Pogorleskiy va Keshnerlarni yozishicha: "Soliq ma'muriyatchiligiga raqamlashtirish va axborot texnologiyalarni kiritish soliq organlarida ish yuklamasini kamaytirish, shuningdek soliq turlari, sug'urta badallari bo'yicha qarzlarni kamaytirishga olib kelishi shart".

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish hayotiy zarurat hisoblanadi. Bu jarayonda iqtisodiy zanjirning muhim halqalaridan biri bo'lgan soliq tizimi barchaga teng va erkin raqobat sharoitini yaratishda kamarbasta bo'lishi kerak. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018-yilda yangi soliq konsepsiyasining qabul qilinishi ana shu maqsadlarga erishishning strategiyasini belgilab berilgan. Soliq tizimda yangi islohotlarni boshlab bergan mazkur konsepsiyadan oldingi holatga nazar tashlasak, 97 foiz soliq to'lovchilar soddalashtirilgan rejimda faoliyat yuritib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ularning ulushi qariyb 60 foizga yetgani holda, byudjet tushumlaridagi hissasi bor-yo'g'i 9,2 foizga teng bo'lgan. Umumbelgilangan soliq to'lovchilar zimmasiga tushgan asosiy soliq yuki atigi 3 foizni tashkil etgan. Hozirgi kunda, biznesda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi natijasida butunlay yangi soliq ma'muriyatchiligi yuzaga keldi.

Mazkur 1-jadvalda soliq to'lovchilar tomonidan berilgan murojaatlar natijasida bir qator takliflar ham olindi. Ushbu soliq to'lovchilar tomonidan berilgan takliflar 2024-yilgi soliq

konsepsiyasida inobatga olindi. Xususan, banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni QQS tortish bo'yicha berilgan taklif inobatga olindi va natijasida qo'shimcha manba kutilmoqda. Shuningdek, foyda solig'i bo'yicha banklar tomonidan zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlarini soliqqa tortish va qo'shimcha manba bo'yicha ham takliflarni inobatga olindi.

1-jadval

Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha 2020-2023-yillar davomida berilgan maslahatlar bo'yicha ma'lumot

No	Bajariladigan ishlar	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	Jami
1.	Bo'limga kelib tushgan murojaatlarga javob berish (umumiy soni):	2464	2555	2783	2990	10792
	<i>Elektron pochta orqali</i>	19	0	0	0	19
	<i>Ishonch telefoni</i>	6	0	0	0	6
	<i>my.soliq.uz (EDO)</i>	349	578	573	622	2122
	<i>Telefon qo'ng'iroqlar orqali</i>	32	29	24	24	109
	<i>Telegram guruhlar (Soliqchi-ko'makchi)</i>	0	0	21	0	21
	<i>Telegram guruhlar</i>	2115	1977	2189	2368	8649
2.	<i>Soliqqa oid normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishda qatnashish bo'yicha (takliflar kiritish)</i>	37	102	96	32	267
3.	<i>Soliq to'lovchilar bilan tashkil etilgan seminar va brifinglar</i>	10	69	36	34	149
4.	<i>Iqtisodiy jurnallarda, soliq sohasidagi yangilik va o'zgarishlar bo'yicha hamda soliq to'lovchilar tomonidan tez-tez taqdim etiladigan savollarga namuna javoblar sifatida maqolalar berib borish</i>	16	21	29	24	90
5.	<i>Yirik soliq to'lovchi vakillari bilan uchrashuv</i>	3	4	7	6	20
6.	<i>Inspeksiya xodimlarining bilim saviyasini oshirish bo'yicha test sinovlarini o'tkazish</i>	6	50	6	0	62
7.	<i>Xalqaro tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha tashkillashtirilgan tadbirlar</i>	6	13	36	12	67
8.	<i>Televidenie va radiolarda soliq sohasidagi o'zgarish va yangiliklar bo'yicha eshittirish berib borish</i>	7	15	19	22	63

Manba: Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Prezidentimiz tadbirkorlar bilan o'tkazgan tarixiy muloqotida tadbirkorlarga og'ir yuk bo'lib kelgan pensiya, maktab va yo'l jamg'armalariga 3,2 foizli yig'imlar bekor qilindi. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga mazkur yig'imlarni bekor qilish hisobiga har yili qariyb 6 trillion so'm mablag' qoladigan bo'ldi. Mol-mulk, daromad va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi. Qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizdan 15 foizga tushirildi, pandemiyadan ko'proq zarar ko'rgan tarmoqlarga ijtimoiy soliq 12 foizdan 1 foizga pasaytirilib, mol-mulk va yer soliqlari to'lovlaridan butkul voz kechildi. Bu esa, tadbirkorlarga ixtiyorida qolgan 2 trillion so'm mablag'ni biznes faoliyatiga sarflash imkonini yaratdi. Qisqa vaqtda mobaynida soliq sohasini raqamlashtirish ishlari jadal rivojlantirildi. Jumladan, umumiy hisobda soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali — my.soliq.uz da 50 ga yaqin shu kabi masofaviy xizmatlar yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, yangi vositalar — elektron hisobvaraqa-faktura, elektron shartnoma, onlayn nazorat kassa texnikalari, raqamli markirovka, mahsulotlarning yagona elektron milliy katalogi joriy etildi. Soliq nazorati tadbirlari oldindan

ogohlantirish va inson omilisiz “Tahlila-tahlil” dasturi orqali 76 ta mezonni qamrab olgan segmentlash asosida amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2019-yil 6-sentyabrdagi “Savdo va xizmat ko’rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq, 2019-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlari bosqichma-bosqich onlayn va virtual kassalardan foydalanishga o’tkazilyapti. Bugungi kunda 149,3 mingta xo’jalik yurituvchi subyekt 182,8 mingdan ortiq onlayn va virtual kassalar bilan ta’minlandi. Mazkur qurilmalarni sotib olishda tadbirkorlik subyektlari xarajatlarini kamaytirish maqsadida birinchi bosqichda (2021-yil 1-yanvarga qadar) hisoblangan va to’lanishi lozim bo’lgan foyda yoki yagona soliq to’lovi yoxud qat’iy belgilangan soliq summasini onlayn-NKMni o’rnatish uchun tegishli xarajatlar summasiga kamaytirish tarzidagi imtiyoz taqdim etildi. Natijada tadbirkorlik subyektlari 22,7 milliard so’m miqdoridagi byudjetga to’lashi kerak bo’lgan soliqlar hisobidan xarajatlarini qopladi. Raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi natijasida davlat xizmatlarini ko’rsatish tezlashishiga va xufiyona iqtisodiyot hamda korrupsiyaning kamayishiga olib keldi. Ma’lumotlarga qaraganda, 2016-yilda yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi 59 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2020-yilga kelib 11 foiz punktga pasaytirildi yoki 48 foizga tushirildi. Bu, o’z navbatida, soliq tushumlarining oshishiga ijobiy ta’sir ko’rsatib, 2016-yilga nisbatan 2020-yilda tushumlar 3,3 barobar o’sdi (2021-yilning birinchi yarim yilligida pandemiyadan oldingi 2019 yilning mos davriga nisbatan 1,6 marta ortdi).

Soliq qo’mitasi huzurida yirik soliq to’lovchilarga xizmat ko’rsatuvchi inspeksiya tashkil etildi va 2020-yil iyun oyidan qo’shilgan qiymat solig’i to’lovchilarga xizmat ko’rsatish vazifasi davlat soliq boshqarmalariga o’tkazilib, byudjet tushumlarining mos ravishda 66,2 foizi va 17,2 foizi, yoki jami 83,4 foizi qo’mita va boshqarmalar tomonidan amalga oshirib kelinyapti. Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni bilan soliq idoralarining tarkibiy tuzilmasi tubdan qayta isloh qilindi. Soha tarixida birinchi marotaba Soliq to’lovchilarga xizmat ko’rsatish departamenti, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash bo’limlari tashkil etildi. Pirovardida oldimizga qo’yilgan eng muhim vazifa, ya’ni fuqarolarimizning soliqdan qochishiga emas, balki uni ixtiyoriy to’lashga o’tishiga, tushumlarning kamayishiga emas, aksincha, o’sishiga erishilyapti. Birgina raqamga e’tiboringizni qaratmoqchiman, tadbirkorlarning aylanma mablag’larini ko’paytirish maqsadida, yil boshidan bugungi kungacha 9 trillion so’m QQS manfiy ortiqcha to’lovlari qaytarildi.

O’zbekiston Respublikasining 562-II-sonli 11.12.2003-yildagi “Elektron raqamli imzo to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq, elektron raqamli imzo (ERI) — bu sertifikatlangan shaxsiy va ochiq kalit yordamida ma’lumotlarni kriptografik konvertasiya qilish yo’li bilan olingan, oddiy imzoni to’liq almashtiradigan va muayyan tashkilot yoki shaxsning imzoni kafolatli tasdiqlashga imkon beradigan maxsus imzo hisoblanadi.

Soliq majburiyatlarini nazoratida soliq qonunchiligiga muvofiqligini tekshirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xavf va xatolarni aniqlash, shuningdek, soliq strategiyasini tayyorlash orqali jismoniy va yuridik shaxslar uchun maqbul soliq solish va rejalashtirish strategiyasini ishlab chiqish. Bunda soliqlarni hisoblash, daromad va xarajatlar miqdori asosida soliq to’lovlari miqdorini hisoblash, soliq organlari oldida mijozning manfaatlarini ifodalash, soliq organlariga murojaat qilish, soliq organlari bilan nizolar va nizolarni hal qilish. Ayniqsa, soliq majburiyatlarini nazorat qilish va ularga rioya qilish, soliq majburiyatlarini nazorat qilish hamda ularga rioya qilishda yordam berish, shu jumladan hujjatlarni topshirish va soliqlarni to’lash muddatlarini monitoring qilish. Soliq qarorlarining bajarilishida soliq qarorlarining bajarilishini va soliq summalarini to’lashni ta’minlash, shuningdek, o’quv va o’quv dasturlari asosida soliq sohasidagi mijozlar va mutaxassislar uchun soliq mavzularida seminarlar, treninglar va o’quv dasturlarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish evolyusiyasi vaqt o'tishi bilan sodir bo'lgan ko'plab o'zgarishlar va ijobiy natijalarni o'z ichiga oladi. Texnologiyaning rivojlanishi va ma'lumotlarning mavjudligi bilan bir qatorda soliq organlari fuqarolar va korxonalar uchun soliqlarni hisobga olish va soliqlarni to'lash jarayonini soddalashtirishga intilmoqda. Asosiy tendensiyalardan biri yuzma-yuz uchrashuvlar va qog'oz hujjatlar kabi an'anaviy xizmat ko'rsatish usullaridan raqamlashtirish va onlayn xizmatlarga o'tish hisoblanadi. Soliq to'lovchilar endi elektron tizimlar orqali soliq hisobotlarni topshirishlari, to'lovlarni amalga oshirishlari va kerakli ma'lumotlarni olishlari mumkin. Bu soliq majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt va ovoragarchiliklarni kamaytiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt va analitik texnologiyalar paydo bo'lishi bilan soliq organlari soliq to'lovchilarning katta hajmdagi ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishni boshladilar. Bu hisobotlarni aniqroq tekshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni aniqlash va shaxsiy xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi. Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi aloqa ham ochiq va oshkora bo'lmoqda va onlayn suhbatlar, forumlar va qo'llab-quvvatlash tizimlari tufayli soliq to'lovchilar o'zlarining savollariga tez va aniq javob olishadi, shuningdek, boshqa foydalanuvchilar bilan joriy soliq masalalarini muhokama qilishlari mumkin.

Soliqqa tortish barqaror jarayon sifatida soliq to'lovchi va soliq xizmatining o'zaro ta'siri hisoblanadi. Soliq organlarini raqamlashtirish quyidagi ijobiy iqtisodiy ta'sirlarni olish imkonini beradi:

- iqtisodiy o'sish va kompaniyalarning rivojlanish tezligini oshirish;
- mamlakatda biznes-jarayonlar samaradorligini oshirish va soliq operatsiyalarining shaffofligini ta'minlash (Цветков и др. 2019, 2018).

Soliq organlari faoliyatiga va ishbilarmonlik muhitiga raqamli texnologiyalarni joriy etish ma'lum tarkibiy qismlarga asoslanishi kerak (2-jadval).

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, soliq to'lovchilar va soliq organlarining raqamlashtirish texnologiyalari ularning o'zaro ta'siri doirasida modellar yordamida qayta ishlashga (yoki o'zgarishlarga) o'z hissasini qo'shadi. Bunda:

- biznes munosabatlarini shakllantirishda ular biznes jarayonlari va biznes jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirishga yordam beradi;
- biznes modelini ishlab chiqishda yangi moliyaviy xizmatlarni yaratishga yondashuvlar, narx siyosati, mijozlar va sheriklar bilan munosabatlar, biznes mahsulotlari bo'yicha innovasion yondashuvlardan foydalanish shakllantiriladi;
- davlatlararo soliq konvergentsiyasini yaratish milliy soliq tizimlari qoidalarining yaqinlashishiga yordam beradi;
- strategik aktivlarni boshqarishda asosiy e'tibor axborot, vakolatlar va mijozlar kabi nomoddiy aktivlarga qaratilishi kerak hisoblanadi. Shunday qilib, soliq organlari kompaniyalarining raqamlashtirish sharoitida o'zaro hamkorligini masofadan turib ishlash orqali ularning faoliyat ko'lamini kengaytirish imkonini beradi.

Soliqqa tortishda qo'llaniladigan va bir-biri bilan faol aloqada bo'lgan texnologik yechimlar mavjud bo'lib, unda muvofiqlik yechimlari, ziyraklik yechimlari, jarayonlarni boshqarish belgilangan.

Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha 2022-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori (Qaror, 2022) qabul qilingan. Unda asosan soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlar tasdiqlangan. Reglamentga asosan, ko'chmas mulk ijara yoki tekinga foydalanish shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish, chet el yuridik shaxslarining doimiy muassasalarini hamda alohida bo'linmalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish), O'zbekiston Respublikasida tovar-xomashyo birjalarida operatsiyalarni amalga oshiruvchi va (yoki) tashkillashtirilgan savdolarida jamiyatlarning aksiyalarini sotib oladigan (sotadigan)

hamda jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududi realizasiya qilish joyi deb e'tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlarni ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish), soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yish, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari – yuridik va jismoniy shaxslarning doimiy joylashuvi (rezidentlik) faktini rasmiy tasdiqlab berish, soliq to'lovchilarga shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarni va solishtirma dalolatnomani taqdim etish bo'yicha soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish tartiblari belgilangan.

2-jadval

Fiskal organlar va biznes tuzilmalarida raqamlashtirishni samarali amalga oshirishning tarkibiy qismlari

Raqamlashtirishni amalga oshirish komponentlari	Raqamlashtirishni amalga oshirish komponentlarining mohiyati
Mijozlarga xizmat ko'rsatishni shakllantirish (Customer Centricity)	Tahlil qilish, o'zgaruvchanlik, reyting, moslashish va prognozlash.
Sheriklik va hamkorlik munosabatlarini kengaytirish (Partner Centricity)	Boshqa xizmatlar va sheriklar bilan hamkorlik va integrasiya orqali kompaniyalarning rivojlanishi va o'z mahsulotlarini bozorda ilgari surishini faollashtirish. Raqamli hamkorlik mahalliy kompaniyalarga butun dunyo bo'ylab o'z bizneslarini olib borishga imkon beradi. Fiskal tartibga solish nuqtai nazaridan – xalqaro soliq shartnomalariga rioya qilish, soliqlarni uyg'unlashtirish va soliq rejimlarining norasmiy yaqinlashishi borasida (soliq stavkalarining yaqinlashishi, soliq bazasini aniqlash va boshqalar.) fiskal islohotlarni amalga oshirish hisoblanadi.
Ma'lumotlar bilan ishlashning innovasion usullarini qo'llash	Ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda vositalardan foydalanish maqsadida: Big Data, sun'iy intellekt, neyron tarmoqlar mijozlarning xatti-harakatlarini modellashtirish, talabni prognozlash, afzalliklarni shakllantirish.
Innovasion texnologiyalarni joriy etish (R & D)	Mahsulotlarni taqsimlashning yangi yo'nalishlarini topish va sinovdan o'tkazish va shu bilan birga soliq qonunchiligining uyg'unligini ta'minlash maqsadida innovasion markazlarni (ta'dqiqot va ishlanmalar) yaratish.

Manba: muallif tomondan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasida tovar-xomashyo birjalarida operatsiyalarni amalga oshiruvchi va (yoki) tashkillashtirilgan savdolarda jamiyatlarning aksiyalarini sotib oladigan (sotadigan) chet el yuridik shaxslarini soliq organlarida hisobga qo'yish tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan, jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududi realizasiya qilish joyi deb e'tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlarni ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarini soliq organlarida hisobga qo'yish Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti orqali elektron tarzda amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yish qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan, yirik soliq to'lovchilarga – Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan, boshqa soliq to'lovchilarga – soliq solish obyekti joylashgan tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilarga shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarni va solishtirma dalolatnomani taqdim etish bo'yicha davlat xizmatlari Soliq qo'mitasining rasmiy

veb-saytida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq majburiyatlari hisobi yuritilayotgan (yuritilgan) tegishli shaxsiy hisobvaraqlardagi ma'lumotlar asosida onlayn tarzda 24/7 rejimida davlat xizmati ko'rsatiladi.

Soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yish yuzasidan davlat xizmatini ko'rsatishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, boshqa soliq to'lovchilar bo'yicha soliq solish obyekti joylashgan yerdagi tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan ko'rsatiladi. Soliq to'lovchini obyektlar bo'yicha hisobga qo'yish Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobga qo'yilganidan keyin, agar Soliq kodeksiga muvofiq soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yilmagan joyda yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda aksiz solig'ini to'lash majburiyati yuzaga kelgan, shuningdek hududiy alohida bo'linma joylashgan yeri bo'yicha doimiy xodimlar soni yigirma besh kishidan ko'p bo'lgan ish joyi yaratilgan bo'lsa amalga oshiriladi. Bu davlat xizmatini ko'rsatish bepul amalga oshiriladi. Soliq solinadigan obyektlar bo'yicha mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lovchisi bo'lgan jismoniy shaxslarni hisobga qo'yish soliq organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Xususiyl amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarni ular o'z faoliyatini amalga oshiradigan joyi bo'yicha hisobga qo'yish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Soliq qo'mitasiga taqdim etilgan hisob ro'yxatiga olingan xususiyl amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning elektron reestrtdagi ma'lumotlar asosida soliq organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Davlat xizmatidan foydalanish uchun soliq to'lovchining vakili tomonidan tegishli yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti vujudga kelgan kundan e'tiboran, aksizosti mahsulotni realizasiya qilish boshlangan paytdan boshlab, alohida bo'linma tashkil etilgan paytdan bir oy o'tganidan keyin o'n kalendar kuni ichida soliq solish obyektlarini ular joylashgan yerda hisobga qo'yish to'g'risida soliq organiga reglamentning 2-ilovasida keltirilgan shaklga muvofiq ariza taqdim etiladi. Arizaga tegishli yer uchastkasi ajratilganligi to'g'risidagi tuman (shahar) hokimining qarori, ko'chmas mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilish huquqini beruvchi hujjat, noruda qazilma boyliklarini qazib olish qilish huquqini beruvchi hujjat, xodimlar soni yigirma besh kishidan ko'p bo'lgan doimiy ish joyi yaratilganda xodimlarning (familiyasi, ismi, otasining ismi, jismoniy shaxsning shaxsiyl identifikasiya raqami, ishga qabul qilinganligi to'g'risidagi buyruq raqami va sanasi ko'rsatilgan holda) ro'yxati hujjatlarning nusxalari ilova qilinadi.

Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarni soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yishda ushbu normalardan tashqari boshqa hujjatlarni talab qilish taqiqlangan. Soliq to'lovchilar tomonidan ko'rsatilgan barcha zarur hujjatlar asosida murojaat qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay, ularga ilgari berilgan soliq to'lovchining identifikasiya raqamiga muvofiq obyektning joylashgan yeri bo'yicha hisobga qo'yadi. Hisobga qo'yish uchun taqdim etilgan hujjatlar reglament talablariga muvofiq bo'lmagan hollarda soliq organlari tomonidan bu haqda ariza beruvchi hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida xabardor qilinadi.

Arizada keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining avtomatlashtirilgan tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestrtda kiritiladi. Arizada keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestrtda ishlovdan o'tkazilgach, ariza beruvchiga soliq to'lovchi soliq organida soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yilganligi to'g'risida belgilangan shaklga muvofiq ma'lumotnoma beriladi. Soliq to'lovchilarning hisob ma'lumotlari o'zgarganda ariza

beruvchi tomonidan bunday o'zgarishlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran o'n kalendar kunidan kechiktirmay soliq organiga avval taqdim qilingan ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida qonunchilikda belgilangan shaklga muvofiq ariza taqdim etiladi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar asosida soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining hisob ma'lumotlariga uch ish kuni ichida tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda aksiz solig'ini to'lash majburiyati tugagan, shuningdek, hududiy alohida bo'linma joylashgan yeri bo'yicha doimiy yaratilgan ish joyidagi xodimlar soni yigirma besh kishidan kamaygan yoki alohida bo'linma faoliyati to'xtatilgan taqdirda, soliq to'lovchi tomonidan o'n kalendar kunidan kechiktirmay soliq organiga xabarnoma yuboriladi. Bunda, soliq organi tomonidan xabarnoma olingan kundan boshlab uch kalendar kuni ichida soliq to'lovchining keyingi davrlar uchun soliq hisobotlarini taqdim etish majburiyati tugaganligi bo'yicha axborot tizimiga tegishli o'zgartirish kiritiladi.

Xulosa va takliflar.

Soliq mexanizmida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish iqtisodiy tizimning zaruriy dastaklaridan biri ekanligi hamda soliqlarning obyektiv zarurligi asoslanildi. Soliq tizimi esa o'z navbatida mamlakatda amalda bo'lgan soliqlar va majburiy to'lovlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning amaldagi harakatlari bilan ifodalanishini, soliq tizimini shakllanishi jarayonida soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Soliq organlarining jahon amaliyoti soliq to'lovchilarni raqamli iqtisodiy muhitga jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda raqamli soliq xizmatlarining rivojlanishi juda yuqori darajadali (Soliq qo'mitasi tomonidan soliq xizmatlarining aksariyati allaqachon raqamlashtirilgan) oflayn aloqasiz ishlashga imkon beradi, shuningdek, turli xil mobil ilovalar yaratilib, ilovalar va dasturlar doirasida soliq to'lash mumkin. Bu ishlarni rivojlantirish va monitoring qilish bosqichiga yangi yondashuvlarni qo'llash, shuningdek soliq to'lovchilarni raqamli muhitga jalb qilish orqali ularning sifatini yanada yaxshilash mumkin.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Axmedov F.B. (2023) *Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati.* –Toshkent.

Ergashev I.A. (2023) *Soliq intizomini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati.* –Toshkent.

Kodeks (2020) *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi* –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi.- 640 b.

Nazarov S.F. (2023) *O'zbekistonda soliq tekshiruvlarini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati.* –Toshkent.

Nesbit J. (2013) *International economic relations.* –M.: Dorchester, 419 p.

Qaror (2022) www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.04.2022 yildagi 150-son.

Вишневский В.П. (2019) *Экономические и регуляторные последствия цифровой революции в налогообложении. Вестник Томского государственного университета экономика. Научный журнал № 47. 9 стр.*

Пугачев А.А., Парфенова Л.Б. (2017) *Налоги в цифровой экономике и цифровые технологии в налогообложении: дилемма или диалектика. журнал: Философия хозяйства №: 4 (124) Стр. 197-206.*

Смит А. (1935) *Исследование о природе и причинах богатства народов.* –М.,

Смит А., (1992) *«Исследования о природе и причинах богатства народов» т.2. Пер. с англ.* – М.: – 612 с.

Токарев Й.В., Манина М.П. (2015) Проблемы оценки экспортного потенциала предприятия // Научный клуб. URL: <http://www.sophus.at.ru>.

Цветков В.А., Дудин М.Н., Лясников Н.В., Заидов К.Х. (2019) Система налогового контроля в Российской Федерации и пути повышения ее эффективности // Экономика и управление, — № 1,

Цветков В.А., Проценко О.Д., Дудин М.Н., Лясников Н.В. (2018) Совершенствование налогообложения субъектов малого предпринимательства агропромышленного сектора // Финансы: теория и практика, — № 22.

Шумпетер Й. (2007) Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шум-петер. –М.: Изд-во Эксмо, 864 с.